



O'QITUVCHI SHAXSINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH NAZARIYASI

Mirzayeva Shahnoza Ubaydullo qizi

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish nazariy asoslari, uning ta'lim sifati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar sharoitida o'qituvchining kasbiy o'sishi, pedagogik faoliyatda yangicha yondashuvlar, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va ijodkorlikni rivojlantirish dolzarb masala sifatida qaralgan. Shuningdek, kasbiy kompetentlik tushunchasining mohiyati, uni shakllantirish bosqichlari hamda pedagogik-psixologik omillar ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Bundan tashqari, o'qituvchi kasbiy kompetensiyasining nazariy va amaliy jihatlarini, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish, yangilik yaratish va refleksiv fikrlash qobiliyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, pedagog, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, ijtimoiy faollik, empatiya, insonparvarlik.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yo'lida ulkan islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayon mamlakatning jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirish, rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashga qaratilgan. Bunday yuksak maqsadlarga erishish esa, eng avvalo, inson kapitalining, xususan, ta'lim tizimi va o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosi bilimli, malakali va innovatsion fikrlovchi pedagoglar faoliyatiga tayanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati va millat taraqqiyoti o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi darajasi bilan belgilanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [1].

Shu bois, O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'qituvchining kasbiy o'sishini ta'minlash, pedagogik faoliyatda ijodkorlik, refleksiya, yangicha metodik yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish malakalarini rivojlantirish masalalari dolzarbdur. O'qituvchining kompetensiyasi nafaqat bilim va ko'nikmalardan, balki shaxsiy fazilatlar fidoyilik, qat'iyat, mas'uliyat va insonparvarlikdan ham tarkib topadi [2].

Jamiyatda kechayotgan chuqur islohotlar o'qituvchidan faqat dars berish emas, balki yosh avlodni mustaqil fikrlashga, tashabbuskorlikka, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etmoqda. "Kasbiy kompetentlik" tushunchasi o'qituvchining o'z



kasbini puxta egallashi, ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtira olishi, shuningdek, pedagogik jarayonni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish qobiliyatini anglatadi. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishning **birinchi bosqichi** bu pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilishdir. Har bir talaba yoki bo'lajak o'qituvchining individual psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi va o'qishga bo'lgan munosabatini o'rganish, ularning kasbiy o'sishiga to'siq bo'layotgan omillarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda o'qituvchi o'zini nafaqat bilim beruvchi, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi murabbiy sifatida namoyon qiladi. Ikkinchi bosqichda talabalarda kasbiy kompetentlikni amaliy ko'nikmalar orqali shakllantirish zarur. Bu pedagogik faoliyatda kuzatish, muloqot, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, shuningdek, ijodiy yondashuvni rivojlantirishni talab etadi. Talaba bo'lajak o'qituvchi sifatida o'zida o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatish madaniyati, empatiya, ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni ham shakllantirib boradi. Uchinchi bosqichda ta'lim texnologiyalarini loyihalash, rejalashtirish va amaliyotga joriy etish orqali proektiv, prognostik hamda kreativ kompetentlik rivojlanadi. Bu bosqichda o'qituvchi yangilik yaratishga intiladi, o'quv jarayonini zamon talablari asosida tashkil etadi, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra oladi va ularni hal etish strategiyasini ishlab chiqadi [3].

Kasbiy kompetentlik ayniqsa murakkab va noaniq pedagogik jarayonlarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarni hal etishda, dars jarayonida kutilmagan holatlar yuzaga kelganda yoki bir-biriga zid ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish zarur bo'lgan paytda o'qituvchining malakasi va tajribasi o'z samarasini ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi o'zining reflektiv fikrlash qobiliyati, psixologik barqarorligi va ijodkorlik salohiyati bilan farqlanadi [4]. Demak, o'qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish nazariyasi bu uzluksiz o'rganish, o'z bilimlarini yangilab borish va o'z faoliyatini tahlil qilish jarayonidir. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy o'zgarishlarning faol ishtirokchisidir. U o'z kasbiy kompetensiyasi orqali yosh avlodda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida tom ma'noda oquvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o'qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o'quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. -B.22.
2. Orif Abduxalikovich G'aniyev, and Zilola Abduxakimovna Sanaqulova. "O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish" Scientific progress, vol. 1, no. 6, 2021, pp. 1078-1081.
3. Djumayeva, M., and J. Zulfiqorov. "Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik nazariyasi". Synapses: Insights across the Disciplines, vol. 2, no. 4, Apr. 2025, pp. 167-75.
4. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - Toshkent: "Sanostandart", 2015. - 120 b.

